

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

UMUMIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat bereman”

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti dekani

_____ dots. Rabbimov M.T.

“ _____ ” _____ 2012y.

5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

“KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARIDA IDROK
QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARINI O'RGANISH”
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: “Boshlang'ich ta'lim va sport
tarbiyaviy ishi” yo'nalishi IV kurs talabasi
Shayqulova Sevara

Ilmiy rahbar: **prof. U. Maxkamov**

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

imzo

BMI Umumi psixologiya kafedrası yig'llishining
qarori bilan (Qoror №__ __ 2012 y) himoyaga
tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

dots. Yo.R.Alimqulov

imzo

Jizzax - 2012

**MAVZU: KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARIDA IDROK
QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARINI O'RGANISH
MUNDARIJA**

KIRISH.....	2
I BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHI.....	5
1.1. Kichik maktab yoshdagi o`quvchilar bilish jarayonlarining o`ziga xosligi.....	5
1.2. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi.....	18
II BOB. O'QUV MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILAR IDROKINI SHAKLLANISHINI O'RGANISH.....	23
2.1. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar idrokining shakllanishining psixologik xususiyatlari	23
2.2. O`quvchilar idrokini shakllanishida ko`rgazmali qurollarning psixologik xususiyatlari	37
UMUMIY XULOSALAR.....	47
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	49

KIRISH

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, inavatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida O'zbekistonda qilingan o'ziga xos islohat modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan.¹ Buni ta'minlash bo'lajak mutahassislarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy talablar asosida tarbiyalashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani xal qilishning samarali yo'llaridan biri bo'lajak mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullanadigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammoni yechimini ham Muhtaram Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – talim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim", deb ta'kidlaydi.²

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillaridan keyin mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida rivojlanishning izchil yo'lga tushib olishi, jahon intellektual salohiyatida to'la raqobatbardosh bo'la olishi inson faoliyatining hamma sohalarida zamonaviy psixologik bilimlarni qo'llay olish darajasiga bog'liq. Bu esa ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida samaradorlikka erishish shaxs psixologiyasini bilmaslik va psixologik bilimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim darajalarini oshirishda o'quvchilar shaxsini va psixologik qonuniyatlarini hamda ta'lim-tarbiya jarayonida ularni rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalar haqida tasavvurlarni shakllantirish ushbu mavzuni dolzarbligini yanada oshiradi.

¹ I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yollari va choralari" Toshkent – 2009 y

² .A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent – 2008 y

Inson omili bilan bog'liq ta'lim to'g'risidagi qonun va milliy dasturining barcha muhim vazifalarini hal qilishda psixologiya fanini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning bilish jarayonlarini shakllantirish ta'lim faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish kafolatini keltirib chiqaradi. Shu sababdan o'quvchilarning bilish jarayonlaridan idrokning o'quv faoliyatidagi ahamiyatini takidlagan holda, ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida idrok qilishning o'ziga xos jihatlarini o'rganish, va rivojlanishini e'tiborga olish zarur. Chunki ta'limda voqea hodisalarni analiz sintez qilish va o'quvchilardagi hissiy holatlar bilish jarayonidagi faoliyatni amalga oshirishda o'quvchilarni ta'limga tayyorlashga, bilish jarayonlarini faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi;

Boshlang'ich sinif o'quvchilar idrok qilishning idrokining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, ularni maktabdagi ta'limda rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishdir. Bitiruv malakaviy ishi jarayonida umumiy maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo'yiladi.

1. Mavzuning ilmiy- amaliyligini umumiy tahlil qilish.
2. Boshlang'ich sinif o'quvchilarining psixik jarayonlarini nazariy jihatdan yoritish.
3. Ta'lim-tarbiyada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni aqliy taraqqiyoti va uni rivojlanish darajasini tahlil qilish.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idrokining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.
5. O'quvchilar idrokining o'rganishda ko'rgazmali qurollarni pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti:

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini ta'limda idrokini o'rganishning psixologik mexanizmlarini nazariy asoslarini yoritib berish.

Bitiruv ishining ilmiy ahamiyati:

Ta'lim-tarbiya jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini ta'limda idrokini rivoshlantirishning psixologik xususiyatlarini psixologiya fanida o'rganilganligiga qaramasdan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida idrok qilishning o'ziga xos jihatlarini o'rganish yetarlicha o'rganilmagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida idrokning o'ziga xosligini o'rganish, sohadagi ilmiy ta'limotlarni ma'lum darajada to'ldiradi.

Bitiruv ishining amaliy ahamiyati:

Ma'lumki, ta'lim jarayoning asosiy maqsadi, faqatgina o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar hajmini oshirishdangina emas, balki ularni bilish faoliyatini, shu jumladan idrokining rivojlantirish hamdir. Malakaviy bitiruv ishi materiallari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quvchilar idrokning o'ziga xosligini o'rganish, rivojlantirish bo'yicha uslubiy ta'vsiya bo'lib xizmat qilishi mumkun.

ILMIY ISHNING METODALOGIK ASOSLARI:

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (Toshkent O'zbekiston 1997 y), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” (Toshkent Ma'naviyat 2008 y), “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” (Toshkent Sharq 1997 y.), “Ma'naviy yuksalish yo'lida” (Toshkent O'zbekiston 1998 y.) asarlari, xalq pedagogikasi va sharq mutaffakkirlarining fikrlari va mavzuga oid ilmiy-ommabop, pedagogik-psixologik adabiyotlar.

Bitiruv ishining umumiy ma'zmuni:

Bitiruv malakaviy ishi 2-bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. O'QUVCHILAR BILISH JARAYONLARINING RIVOJLANISHI.

1.1. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilar bilish jarayonlarining o'ziga xosligi.

Kichik maktab yoshdagi bola o'qituvchisi bilan yaxshi emotsional munosabatda bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolliga xotirasining muayayn darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkuri jadal rivojlantiradi. Bu yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi. Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining bilish jarayonlari maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning bilish jarayonlaridan keskin farq qilishi bilan birga u sifat jihatidan ham o'zgara boshlaydi va tez rivojlanadi. Ma'lumki, diqqat o'qish jarayonining zarur sharti bo'lib hisoblanadi. Idrokning to'laligi, to'g'riligi, tezligi, esda qoldirishning tez va aniqligi diqqatga bog'liqdir. Fikrlash jarayonlari diqqat tufayli aniq mantiqli, mazmunli bo'ladi. Chunki o'quvchilarning mustaqil ravishda masala echishi va bu masalani tushuntirishi eng oldin ular diqqatining kuchi va barqarorligini ta'minlaydi. O'quvchilarning aqliy faoliyatining zarur shartlari bilan ta'minlash uchun o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatining xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kichik yoshdagi o'quvchilarni bosh miya yarim sharlari po'stida juda tez paydo bo'ladi. Shu sababli, agar bir qo'zg'ovchi bolaning miya qobig'ida qo'zg'alishni vujudga keltirsa, unda ikkinchi qo'zg'ovchi bosh miyada juda tezlik bilan yangi qo'zg'alish o'chog'ini tormozlab qo'yishi mumkin. Bu kichik yoshdagi bolalarning diqqatini juda tez va oson chalg'itish mumkinligini ko'rsatadi. O'quvchilar diqqatining bu

xususiyati ularning darsda o`qish materiallarini o`zlashtirishlariga xalaqit beradi. Shu sababli o`qituvchi bola diqqatining bunday xususiyatlarini doimo esta tudgan holda, darsni uning bir mazmuni bilan ikkinchisini bog`lab ustalik bilan o`tkazishi va bularni bir – birini tormozlab qo`ymasligi uchun darsning har bir bosqichini yaxshilab o`ylab ko`rishi kerak.

O`qish jarayonining ta'siri ostida kichik yoshdagi o`quvchilar diqqatining barcha xususiyat va sifatlari intensiv ravishda o`sib boradi va bu bilan ixtiyorsiz diqqatdan ixtiyoriy diqqatga ko`chish jarayoni osonlasha boradi. Kichik yoshdagi o`quvchilik davrida diqqat tez o`sadi maktabdagi ta'lim-tarbiya ishlari sinflarda olib boriladi. Ishlar bolaning diqqatini shakllantiruvchi va tarbiyalovchi yangi sharoitdir. Ixtiyorsiz diqqat qiziqish bilan mustahkamlanishi sababli, har bir o`qituvchi o`z darsini qiziqarli va maroqli qilishga intiladi. Lekin shu narsani yodda tutish lozimki, o`quvchilarning diqqatini bevosita qiziqarli va maroqli bo`lmagan narsalarga ham qaratishga o`rgatish kerak. Aks holda nozik va injiq diqqat paydo bo`lib qoladi. O`quvchi faqat qiziq narsalarga diqqatini qaratishga o`rganib qolsa, unday holda faoliyatining qandaydir elementlari bevosita qiziqish uyg`otmasa, o`quvchi ixtiyoriy diqqatini bu elementlarga safarbar eta olmaydi. Diqqat barqarorligining nisbatan kuchli bo`lmasligi uning yosh xususiyatidan iboratdir. Bu asosan I va II sinf o`quvchilari uchun xarakterlidir. Kichik maktab yoshdagi o`quvchilar diqqatining beqarorligi tormozlanish jarayonining yosh bilan bog`liq bo`lgan zaifligi natijasidir. I sinf o`quvchilari, ba'zan esa II sinf o`quvchilari ham biron ishga o`z diqqatini uzoq vaqt davomida to`play olmaydilar. Ularning diqqati osonlik bilan chalg`ib ketadi. Shu sababli ular vazifani o`zlari bajara olmasliklari, faoliyatining tempini va ritmini yo`qotib qo`yishlari, so`zlarda harflarni, gaplardan so`zlarni tushirib qoldirishlari mumkin.

Tadqiqotlarning ko`rsatilishicha I va II sinf o`quvchilari 30-35 minut davomida jim o`tirishlari va o`z diqqatlarini saqlab turishlari mumkin. Bundan ortiq saqlab tura olmaydilar. Darsni tashkil qilishda buni hisobga olib, ishda kichkina tanaffuslar qilish lozim. Boshlang`ich sinf o`quvchilari diqqatining o`ziga

xos xususiyatlariga asoslanib diqqatni tarbiyalashning ayrim usullarini ko`rsatib o`tamiz.

Diqqatni rivojlantirishda o`quv mashg`ulotlarini samarali o`tish uchun qulay bo`lgan tashqi sharoitlar katta ahamiyatga egadir. O`quvchi shug`ullanayotgan xonada uning diqqatini chalg`ituvchi, qo`zg`atuvchi (shovqin–suron, ortiqcha gap–so`z, ishga keraksiz buyum)lar bo`lmasligi tegishli gigiena sharoitlariga sof havo, yorug`likning etarli bo`lishiga rioya qilinishi kerak.

Ixtiyorsiz diqqatni tarbiyalash uchun maktab o`quvchilarining bilimiga oid qiziqishlarini rivojlantirish uning tasavvurlari doirasini kengaytirish kerak. Bolaning umumiy aqliy rivojlanishi qanchalik yuqori bo`lsa, unda ixtiyorsiz diqqat shunchalik kuchli rivojlangan bo`ladi.

Maktab mashg`ulotlarining dastlabki haftalarida o`qituvchining hikoya va ertaklar o`qib berishi diqqatni tarbiyalash uchun yaxshi vosita bo`lib xizmat qiladi.

Darsni yaxshi tashkil etish diqqatni jalb qilishning va saqlab turishning muhim shartidir. Buning uchun o`qituvchi darsga vijdonan tayyorgarlik ko`rishi, mashg`ulotlar rejasini va ularni to`g`ri taqsimlash va boshqalarni atroflicha o`ylab ish ko`rishi zarur.

Darsning boshlanishida o`qituvchilar o`z vazifalarini tushunib olishlari, nima bilan shug`ullanishlarini bilishlari uchun darsning maqsadini ma'lum qilgan foydalidir.

Ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy jalb qilish uchun o`quv materiallarining mazmuni va uni bayon qilish shakllari o`qituvchining jonli, yorqin, iloji boricha ta'sirli hikoyasi, aniq masalalar keltirishi, rasmlar ko`rsatishi, ko`rsatmali qurollarni qo`llanilishi katta ahamiyatga egadir.

Diqqatning ikkilanishi va chalg`ishining mavjudligi, bolalarning charchab qolishi bot–bot dam olishini, dam olish daqiqalarni o`tkazishni, shuningdek mashg`ulotlarni bir-biri bilan o`zgartirib turishni talab qiladi.

Materialni bayon qilishning o`zi bir ohangda va bir xilda bo`lmasligi, balki jonli jo`shqin xarakterda bo`lishi zarur.

Diqqatni jalb qilish uchun bolalarning o`quv ishlarini faolashtirish zarur. Ular ko`proq o`ylashlari o`z kuchlari etadigan ishlarning hammasini o`zlari mustaqil bajarishlari kerak.

Diqqatni rivojlantirishda o`quvchining o`ziga o`rgatilayotgan narsani tushunishi katta ahamiyatga egadir. Agar biror narsa uning uchun noaniq bo`lib qolsa, diqqati susayishi mumkin.

O`quvchining ixtiyoriy diqqatini rivojlantirish uchun unda o`qishga ongli munosabatini, burch tuyg`usini, o`z ishi va xulq-atvori uchun mas'uliyatni tarbiyalamoq kerak. Ixtiyoriy diqqat bolaning xarakteri va irodasiga ayniqsa, bog`liq bo`ladi.

Bolalarda parishonxotirlikni barham toptirishga, xatto ish yoki dars qiziq va oson bo`lmagan vaqtda ham sabot–matonat va tirishqoqlik ko`rsatishga intilishini ham tarbiyalash kerak.

Bolalar bilan ishlashda diqqatning ikki turini jalb qilish uchun iloji boricha ularni bir-biri bilan almashtirib, ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatni vujudga keltirgandagina o`qituvchi ta'lim vazifasini ham, tarbiyaviy vazifani ham muvaffaqiyatli hal eta oladi. Shuningdek, o`qituvchi bolani qaysi diqqat turi bilan band bo`lsa, undan unumli foydalanilishi lozim. Chunki agar bolani doimo ixtiyoriy diqqat bilan o`tirishini talab qilinsa bola tez toliqadi. Boshlang`ich sinflardagi o`qish faoliyati dastavval psixik jarayonlarning rivojlanishini, ya'ni tevarak – atrofdagi olamni bevosita bilishini – sezgi va idrokning rivojlanishini stimullashtiradi.

Maktabga yoshdagi bolalarda analizatorlar batomom tarkib topgan bo`ladi, biroq ularning rivojlanishi maktab yoshida ham davom etadi. Analizatorlar bir xilda rivojlanmaydi. Kichik maktab yoshida ko`zning o`tkirligi birmuncha sekinroq sur'at bilan ortadi, o`smirlarda esa bu sur'at yana kuchayadi. Shu bilan birga kichik maktab yoshidagi o`quvchida ko`rish va eshitishga oid qo`zg`atuvchilarni farqlash qobiliyati tez rivojlanadi. Bu davrda yaqin joyda turgan narsalarga (daftar, kitob) va bir muncha uzoqroqda turgan narsalarga (sinf doskasi, devordagi karta) qarash uchun ko`rish apparatini tezda boshqacha to`g`rlash

ko`nikmasi ham sezilarli darajada takomillashadi. Bolalar maktabga asosiy ranglarni bilgan holda keladilar. Qiz bolalarda ranglarni sezish xususiyati o`g`il bolalarga qaraganda birmuncha kuchliroq rivojlangan bo`ladi. Bunga sabab o`yin faoliyati qizlar narsalarning rangi bilan o`g`il bolalarga qaraganda ko`proq qiziqadilar.

Eshitish qobiliyatining o`tkirligiga kelganda shuni aytish kerakki, bu qobiliyat kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan bir muncha o`sgan bo`ladi. Maktabdagi ta`limning dastlabki yillarida so`zlarni eshitish qobiliyati ayniqsa rivojlanadi, bunga o`qish va yozishni o`rganish yordam beradi. O`z navbatida fonematik eshitish qobiliyati yetarli darajada rivojlanadi, o`qish muvaffaqiyatliroq boradi.

Maktabdagi boshlang`ich sinflar o`qituvchisining muhim vazifalaridan biri– o`quvchilarning sezgilariga xos bo`lgan xususiyatlarga diqqat bilan qarash va ularning sezgirligini oshirish to`g`risida g`amxo`rlik qilishdir. O`qituvchi o`z o`quvchilaridan qaysi birining ko`zi ravshan ko`ra olmasligini (yaqindagini yoki uzoqdagini ravshan ko`rishini) qaysinisi etarli darajada yaxshi eshitmasligini bilishi lozim. Sezgi organlarida nuqsonlari bo`lgan bolalarni tabibga ko`rsatishi zarur, sinfda esa ularni yaxshiroq ko`radigan va eshitadigan qilib o`tqazish kerak. Shu bilan birga o`qituvchi bolalarda sezgilarning rivojlanishi to`g`risida ham g`amxo`rlik qilishi lozim. Rasm solish, musiqa, qo`shiq aytish bilan shug`ullanishi, tabiat quchog`iga, muzeylarga, surat ko`rgazmalariga ekskursiyalar uyushtirishi va boshqalar sezgilarini rivojlanishiga ma'lum darajada yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar idrokining o`tkirligi va sofliги bilan farq qiladilar. O`quvchilarning idroki o`ziga xoslik bilan farq qiladi. Buni oliy asab faoliyatining yosh xususiyatlari va birinchi signal tizimining nisbatan ustunligi bilan tushuntirish mumkin. Kichik maktab yoshidagi o`quvchi o`zining oldida har kuni qandaydir bironta yangilik ochib beradigan tevarak-atrofdagi olamni jonli qiziqish bilan idrok qiladi. Biroq o`quvchining bu idroki o`quv yili boshlarida o`ziga xos xususiyatlar uning yosh jihatdan bo`lgan kamchiligi haqida gapirishga imkon beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar idrokining eng xarakterli tomoni uning kam differentsialashganidir. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar o`xshash ob'ektlarni noaniq va xato differentsiyallashtiradi: ba'zan yozilishi jihatidan yoki talaffuz qilinishi jihatidan o`xshash harflar va so`zlarning o`xshash narsalar tasvirining va o`zaro o`xshash narsalarning farqiga bormaydilar va ularni aralashtirib yuboradilar. Bu hol idrok qilishdagi taxlil qilish funktsiyasining yoshga xos zaifligi bilan bog`liqdir. Idrokning yuzakiligi shunga olib keladiki, kichik maktab yoshidagi o`quvchilar narsaning ayrim belgilarini yaxshi sezmaydilar, ularni bir – biri bilan bog`lamaydilar va uning eng muhim sifatlarini ko`rmaydilar. Yorqin, katta, harakat qiladigan hamma narsalar ularning diqqatini o`ziga tortadi. Shuning uchun ko`zga yaqqol ko`rinib turadigan narsalarni bolalar mavhum abstrakt materialga qaraganda yaxshiroq idrok qiladilar. Ammo yil sayin kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning idroki ancha etuk, to`liq bo`lib boradi. Idrok qilinadigan narsadagi ikkinchi darajali narsa keyingi rejaga o`tib, muhim, asosiy narsa aniq ko`zga tashlanadi. Bolalar idrokida ko`pincha analiz va sintezning etishmasligi ko`rinib turadi, ularning yoshida idrok qilish his-tuyg`ular bilan mahkam bog`langan bo`ladi. Bola atrofdagi muhitni befarq idrok etmaydi: ko`p narsa uni quvontiradi yoki xafa qiladi. O`quvchilarda idrok qilish ko`pincha noaniq bo`ladi. Ular bir-biriga o`xshash narsalarni aynan bir xil narsalar, deb qabul qiladilar. Masalan, shaharlik bolalar chittakni qarg`a deb qabul qilishlari mumkin. Idrok qilishning noaniqligi I sinf o`quvchilarida kitob o`qish faoliyatida o`z ta'sirini ko`rsatadi, ular bu vaqtda o`qilayotgan so`z o`rniga unga o`xshash bo`lgan boshqa so`zni aytib yuboradilar. Masalan: “o`yladi” o`rniga “o`ynadi”, yoki “bahor” o`rniga “baho” deb o`qishlari mumkin.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda makonni idrok qilishi ham etarli darajada rivoj topmagan. Ular asosiy uzunlik o`lchovlarining nomini bildiradilar—u, lekin ularda masalan bir kilometr ga teng bo`lgan masofaning qancha bo`lishi to`g`risida aniq tasavvuri yo`q. O`quvchilarda vaqtni idrok qilish ham sust rivoj topgan. Ba'zi bolalar dars va soat vaqt jihatidan bir-biriga teng deb hisoblaydilar. Bolalar idrokini zaif tomonlariga shu narsa sabab bo`ladiki, ularda bilim va tajriba

etishmaydi. Lekin ana shu bilim va tajriba paydo bo'lib borgani sari bola dunyoni tobora aniqroq va to'g'riroq idrok qila boshlaydi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idrokni sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolishi va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravshanligi o'tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kichik maktab yoshida o'quvchilarda xotira ta'limning ta'siri bilan ikki yo'nalishda rivojlantiriladi. So'z-mantiq xotirasining va ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli va uning salmog'i kuchayadi va bola o'z xotirasini ongli ravishda boshqarish hamda xotiraning namoyon bo'lishini, tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladi. Birinchi signal tizimi faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z-mantiq xotiraga nisbatan ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qoida va tushuntirishlarga qarorlarda aniq narsalarni ma'lumotlarni, voqealarni, qiyofalarni, narsalarni va faktlarni yaxshi, tez esda olib qoladilar va xotiralarida mustahkam saqlaydilar. Ayniqsa I – II sinf o'quvchilari esda olib qolinadigan materialning ichki ma'naviy bog'lanishlarini anglamagan xolda mexanik tarzda esda olib qolishga moyil bo'ladilar. Ular ko'pincha o'quv materialini qayta ko'rmay, hech o'zgartirmay, uning mazmunini boshqa so'zlar bilan aytib berishga intilmay, so'zma-so'z yodlashga va qayta tiklashga intiladilar. Buni quyidagi xolatlar bilan tushuntirib o'tamiz.

Birinchi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mexanik xotira yaxshi rivojlangan bo'ladi va u ko'pincha ortiqcha mehnat sarf qilmay, materialni so'zma-so'z esda olib qoladilar;

Ikkinchidan kichik maktab yoshidagi o`quvchining oldida esda olib qolish vazifasini ajrata, differentsiatsiya qila olmaydi. O`qituvchi bo`lsa, bu xususda ko`pincha o`quvchiga yordam bermay, materialni to`g`ri va etarli darajada to`la qaytarib berishni talab qilish bilan cheklanadi;

Uchinchidan kichik maktab yoshidagi o`quvchilar ayniqsa I–II sinflarda hali nutqni yaxshi egallamagan bo`ladilar. Ularga materialning umumiy ma'nosini o`z so`zlari bilan aytib berish osonroq bo`ladi;

To`rtinchidan kichik maktab yoshidagi o`quvchilar ko`plari hali ma'nosiga tushunib, esda olib qolishni tashkil qila olmaydilar: ular materialni ma'nosiga qarab guruhlarga bo`lishni, mantiqiy jadvallardan foydalanishni, esda olib qolish uchun tayanch punktlarni ajratishni va materiallarni qayta o`zgartirish bilan bog`liq bo`lgan tekstning mantiqiy rejasini tuzishni bilmaydilar.

Mantiqiy xotira, ya'ni materialning ma'nosini, mohiyatini, fikrlarni, dalillarni, asoslarni, mantiqiy jadvallar va mulohazalarini esda olib qolish hamda qayta esga tushirish qobiliyati ta'lim jarayonida rivojlanib, asta–sekinlik bilan yuzaga keladi. Mantiqiy xotirani rivojlanishini har tomonlama stimullashtirish, bolalarni materialni yaxshi esda olib qolish uchun uning ma'nosini anglashga undash, materialni qayta qurish va uni asosiy mazmunini saqlab qolgan holda o`z so`zlari bilan izohlab berishga o`rgatish o`qituvchilarning burchidir. Ixtiyoriy esda olib qolishning samaradorligi kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning intellektual faolligi darajasi bilan belgilanadi. Intellektual faollik darajasi kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning esda olib qolishini tashkil qilish va boshqarish vositalarini egallash bilan bevosita bog`liqdir. Tadqiqotlarning ko`rsatilishicha, esda olib qolishning samarali usullari o`qishni o`zini nazorat qilish, o`zini tekshirib turish orqali esda olib qolinayotgan materialni qayta tiklashga urinishi bilan almashtirib olib borishdan iboratdir. Kuzatishlar shu narsadan dalolat beradiki, kichik maktab yoshidagi o`quvchilar ozmi–ko`pmi mustaqil esda olib qolishning faqat birgina oddiy usullaridan–takrorlash usulidan foydalanadilar. Bolalarda xotiraning individual farqlari ham ko`zga tashlanadi. Bir xil bolalarning xotirasi yuqori darajada tayyorligi sababli ular biror narsani tezda eslab, zarur javoblarni

berishlari mumkin. Boshqalari esa sekin o`zlashtiradilar, tez hamda osonlik bilan esga tushirmaydilar. O`qituvchining shoshma–shosharlighi, uning sabr–toqat qila olmasligi va o`quvchiga o`ylab ko`rish, fikrlarini bir joyga to`plash uchun imkon bermasligi bolaning bilimlarini noto`g`ri baholashga olib kelishi mumkin. Bu esa unda o`qituvchiga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradi va o`z kuchlariga bo`lgan ishonchiga putur etkazishi mumkin.

Maktabdagi ta'lim jarayonida bolalar hali o`zlari bevosita idrok qilmagan borliq va hodisalar haqidagi bilimlarini o`zlashtira boshlaydilar. O`quvchilar bunday ma'lumotlarni, albatta xayolning faol faoliyati orqali o`zlashtirib oladilar. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning xayoli uning o`quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. Shuning bilan barcha bevosita taassurotlar ham xayolni rivojlantiradi. Bu davrda xayolning rivojlanishidagi asosiy fikrlarni (g`oyalarni) ko`rish mumkin. Dastavval ilgari idrok qilingan obrazlarni tasavvur qilish bilan yoki mazkur tasvirga, sxemaga, suratga va shu kabilarga mos keladigan obrazlar yaratish bilan bog`liq bo`lgan qayta tiklovchi xayol takomillashadi. Bolalarning tetiklik, yorqinlik va konkretlilikdan mahrum bo`lmagan tasavvurlari sekin–astalik bilan yanada aniqlashadi, o`quv narsalari, bolalar o`qigan kitoblarning mazmunini borgan sari to`g`ri aks ettiradi, hamda uzuq–yuluqlik va fragmentorlikdan ozod bo`lib, bir sistemaga birlashadi. O`tmishdagi tajribalardan olingan taassurotlarini qayta ishlash va o`zgartirish bilan bog`liq bo`lgan hamda ularni yangi obrazlarga, kombinatsiyalarga birlashtirishdan iborat yangi obrazlar hosil qilish sifatidagi ijodiy xayol ham yanada rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o`quvchi xayolida voqelikka zid bo`lmagan obrazlar borgan sari ko`proq paydo bo`ladi. Bu esa bolada tanqidiy baholash qobiliyatining rivojlanishi bilan bog`liqdir. Shunday qilib kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning xayoli bir tomondan, bevosita tassurot ta'siridan sekin-asta ozod bo`ladi, mana shuning o`zi bola hayotiga ijodiy xarakter bag`ishlaydi. Ikkinchi tomondan mazkur o`quvchilar xayolining rivojlanishi ya'ni uning realligi xayol obrazlarini mantiqiy ravishda ob'ektiv olam qonunlari asosida nazorat qilish hamda baholash qobiliyati rivojlanishi bilan bog`liq bo`lgan realligi kuchayadi.

O`qituvchi o`qish materialini o`quvchilarning xayol xususiyatiga muvofiq berilishida o`quvchilarning qaysi bilim boyligiga tayanishi kerakligini mavjud tasavvur boyliklaridan qaysi birini tanlab olishni va undan foydalanishi kerakligini hamda ularning xayol oqimini qaysi tomonga qarab o`zgartirishi maqsadga muvofiqroq bo`lishini bilishi kerak. Bunda o`qituvchining epitet va o`xshatishlarni o`z vaqtida to`g`ri ishlatish muhim ahamiyatga egadir. Chunki epitet va o`xshatishlar o`quvchilar ongidagi tasavvurlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Ma'lumki xayol faoliyati tafakkur bilan chambarchas bog`langan bo`ladi. Fikrlash jarayonlari xayol tasavvurlariga tayanadi.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda tafakkurning rivojlanishi. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar tafakkurining xususiyatlarini o`rgangan olimlar bolaning tafakkurini quyidagi uch yo`nalishda tadqiq qilganlar: birinchidan tafakkurning yosh davriga xos xususiyati, ikkinchidan uning rivojlanishi, uchinchidan tushunchalarni shakllanish omillari.

Bolalar narsalarning o`zgarmaydigan ba'zi belgilari doimiylikini payqay olmasligi ulardagi tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Ta'limning dastlabki bosqichida bolani umumlashtirishi juda sodda bo`ladi va faqat o`xshashlik belgisiga asoslanadi. Keyinchalik esa bola narsa va hodisalarning tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlariga ajratishi va tasniflashga, narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlari, murakkab ichki bog`lanish va munosabatlarning muhim belgilari bo`yicha umumlashtirishga o`tadi.

I va II sinf o`quvchilari o`quv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi belgilariga tayanib fikrlaydilar: quyosh, momoqaldiraq, avtomobil, qush va boshqalar to`g`risida fikr yuritishda “quyosh isitadi, yoritadi” “Momoqaldiraq guldiraydi” “Avtomobil yuk tashiydi” “qush sayraydi” kabi hukmlar chiqaradilar, shuning uchun agar o`rganilayotgan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita aniqlash zarurati tug`ilsa, darrov ko`rinadigan misolga murojat qiladilar. O`quvchilar III sinfga o`tgandan so`ng umumlashtirishdan moddiy dunyodagi voqeylikning eng muhim munosabat va bog`lanishlarni aks ettiruvchi ichki

belgilariga tayanadilar. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar ta'lim jarayonida ilmiy tushunchalarni o`zlashtirishda oldingi darslarda o`zlashtirilgan turli alomatlar, belgilar, xususiyatlarini qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o`rtasida uzviy bog`lanish tarkib topmagan bo`ladi. I va II sinf o`quvchilari uzunlik o`lchov birliklarini o`zlashtirishda ham qiynaladilar, chunki ular uzunlik o`lchovining asosiy belgisi uning uzunligini ajratishni bilmaydilar.

III sinfga o`tganlaridan keyin murakkab fazoviy munosabatlarni egallashga kuchlari etadi. Chunki ta'lim jarayonida ularning fazo to`g`risidagi tasavvurlari, tushunchalari kun sayin reja, masshtab, er shari va qator shartli belgilar haqidagi bilimlar bilan boyib boradi. O`quvchilarning bilim doirasi kengaygani sari ular qat'iy hukmlardan taxminiy hukmlarga ko`cha boshlaydilar narsa va hodisalarning turli xususiyatlariga egaligini voqelik atigi bir harakatdan bir sababdan emas, balki ko`p sabablardan paydo bo`lishligini anglash bosqichiga ko`tariladilar. Taxminiy hukmlar II sinfdan boshlab paydo bo`ladi. III sinfdan boshlab o`quvchilarda tushuncha va hukm rivojlanishi bilan birga turli narsa va hodisalar haqida yuritilgan muhokamalar asosida xulosa chiqarish ham o`zgarib boradi. O`quvchilarda induktiv va deduktiv xulosa chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa chiqarish avval bevosita idrok qilinayotgan narsalar asosida vujudga keladi. U bevosita kuzatish, idrok qilish jarayonida narsa va hodisalarning munosabatini bog`lanishini aks ettiradigan xulosa chiqarish bo`lib, bolaning tafakkurida asosiy o`rin egallaydi. Chunki bunda yaqqol-obrazli tafakkurga tayanib xulosa chiqariladi. Keyinchalik mavhum shart-sharoitlardan vujudga keladigan xulosa chiqarish turi paydo bo`ladi.

Ta'lim jarayonida tafakkurning analitik – sintetik faoliyati muhim rol o`ynaydi. O`quvchilar tahlil qilishi jarayonida yahlit munosabatni yoki narsani bo`laklarga ajratib ularning, uzviy bog`lanishini aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, ya'ni bo`laklarning yaxlit buyumga bog`lanishini aniqlaydi. O`quvchilar tahlil va sintezni, taqqoslashni mashq qilish orqali narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy bilishlaridan ajratishni o`rganadilar va

shu tariqa o`zlarining mavxumlashtirish faoliyatlarini takomillashtiradilar. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining umumlashtirish faoliyatini rivojlanish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma'lumki, yil oxiriga borib, bolalarning o`zlari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilariga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Ularda mahalliy tushunchalar, atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi. Bolalarda mavhumlashtirish va umumlashtirish usullarini o`rgatish bolalar tafakkurining rivojini yangi bosqichga ko`taradi. Ularning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usularini qo`llashdan o`ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o`smirlar tafakkuridan keskin farq qiladi. Bolalar tafakkurida ma'lum darajada ustun turadi va ularning tafakkuri yosh xususiyatiga mutloqo mosligini ko`rsatadi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalarini, mustaqil fikirlashni o`rgatish kichik maktab yoshdagi o`quvchilarni kamol toptirish garovidir.

Maktabga kelish arafasida bolaning so`z boyligi o`z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o`z nutqida 500–600 so`zni ishlatasa, olti–yoshli bola 3000–7000so`zni ishlatadi. Boshlang`ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog`lovchilardan iborat bo`ladi. Bu yoshdagi bolalar o`z nutqlarida qaysi so`zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o`z jumllarini murakkab gramatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab boradilar va nutqni o`zlashtirish ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o`ziga hos yana bir xususiyati bola nutqida o`z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o`z suhbatdoshining diqqatini o`ziga jalb qilishini ham biladilar. Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumllarini to`g`ri tizimli va so`zlarni to`g`ri yozilgan ma'lum talablar qo`yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so`zlarni qanday eshitgan bo`lsa, shundayligicha yoza olmasligini bilishi, uchun to`g`ri talaffuz etishga va yozishga o`rgatishi zarur. Yozma nutqni egallashi asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq

endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada hali o`zi yozgan fikrlarni so`z va harflarni nazorat etishi malakasi hali rivojlanmagan bo`ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o`quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash fikrini bayon etish uchun malumot to`plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma`lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jummalarni to`g`ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so`zlarni topish va ularni to`g`ri yozish, tinish belgilarini to`g`ri qo`yish, o`z holatlarini topa olish va to`g`irlash aqliy rivojlanishning ko`rsatkichlaridan hisoblanadi.

Maktabdagi o`qish o`quvchilar nutqining mazmuniga katta ta'sir ko`rsatadi. O`quvchilarning lug`ati yangidan-yangi so`zlar va tushunchalar bilan boyib, nutqi esa maxsus so`zlar, terminlar va yangi iboralar bilan to`lib boradi. Har xil o`quvchi narsalari o`quv nutqi oldiga yangi talablar qo`ydi. Matematikada qisqa aniq nutq kerak bo`lsa, o`quv darslarida o`quvchilarga keng, obrazli iboralar bilan to`ldirilgan gaplar kerak bo`ladi. Bolalar monologik nutqdan foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch keladalar. Bolalarning og`zaki va yozma nutqlari o`rtasida katta farq borligini ko`ramiz. Bu farq shundan iboratki, maktabgacha yoshidagi bolalar bir-birlari bilan og`zaki nutq yordamida munosabatda bo`ladilar, yozma nutq esa kichik yoshdagi o`quvchilar uchun yangi notanish sohadir. Shu sababli yozma nutqni o`quvchilar qiyinchilik bilan egallaydilar. O`quvchilar nutqini takomillashtirish uchun aktiv nutq bilan doimiy ravishda mashq qilish talab etiladi, buni ta'lim jarayonida har doim esda tutish kerak.

1.2. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va boglovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllalarini murakkab grammatik tizimda to'za oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi, 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar,

Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumllarni to'g'ri to'zish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar quyilganligi bilan xarakterlanadi, Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffo'z etishi va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutk endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada Hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot tuplash, muhim jihatlarni ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja to'zish malakasini yuzaga keltiradi. Jumllarni to'g'ri to'zish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, ko'zatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lamini kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z

idroklarining aniqligi, ravonligi, utkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o`ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o`zlashtirish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

7-10 yoshdagi o`quvchining idroki, uning xatti-harakati, o`yini va mehnat faoliyata bilan bevosita bog`liqdir. O`quvchi o`zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va yugirishi turmush sharoitiga mos, shuningdek o`qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

Birinchi sinfga kelgan bola narsalarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o`qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasini yuqori bo`lishi juda muxim. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real Hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks ettanini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat - qiladilar. Bola rasmlarda atrof-muhitdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go`zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o`z munosabatini bildiradi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog`lomligida, uning bilish faolligida ko`rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o`rganishga qaratilgan bo`ladi. Bola o`ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-oqibatlari va bog`liqlaridan xabardor bo`lishga intiladi. Masalan, bola o`zi mustaqil ravishda qanday narsalar suvda cho`kishi, qaysilari esa so`zishni tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo`lsa, u bugunchalik ko`p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo`ladi, Bolani qor, yomgir qanday yotishi, quyosh kechasi qaerda bo`lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha bo`lgan masafani bilishi juda qiziqtiradi. Bu ularning «Nima uchun?», «qanday qilib?», «Nima orqali?» kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo`ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o`zlari ko`rib turgan narsa Haqida chuqurroq fikr yuritib oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.

6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko`rganlariga tayanib, ta'lim olishga senzitiv bo`lgan davr Hisoblanadi. So`zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga Ham bog`liq bo`lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan to`ziladi. Chunki, aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi-individ ijtimoiy munosabatlar bilan o`zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o`qishga o`tishi uning atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o`zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidash o`quvchilarning tafakkuri mantiqiy fnkrlash, muloxaza yuritish, Hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo`llashdek o`ziga xos xo`susiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o`smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o`rgatish kichik maktab yoshidgi o`quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O`quv faoliyati psixik funktsiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning dikkati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin, odatdagi Holat va vaziyatlarda bolaga o`z psixik funktsiyalarini yuqori darajada tashkil etish Hali birmuncha murakkabdir.

6-7, 10-11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo`riqish asosidagina, bola o`zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy harakatda intilgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida diqqatni irodaviy zo`r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo`lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko`proq rivojlangan bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quv materiallarining yaqqolliigi, yorqinligi, jozibadorligi, o`quvchida baxtiyor His-tuyg`ular uyg`otadi, irodaviy zo`riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o`quvchilari diqqatining o`ziga xos xo`susiyatlaridan biri - uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o`z diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olaydilar va diqqat ob'ektlar ustida o`zoq tura olmaydi.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar echish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni to'plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish o'quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so'zsiz o'z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etilishini talab qiladi.

Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini etarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi.

O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi. o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab solishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolannng xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat albatta, biron-bir yordamchi qurollar-narsalar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur harakatlar qilishga qiynaladilar.

Psixolog Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash so'ralgan. Bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligini

bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va hikoyalar tuqiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar zahirida ularning qurquvni engishi, do'st topishi, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan Holatda ko'pincha xayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qahramonlik qilingani tasavvur qiladi. o'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatlari motivatsiyasi uchun zamin tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-Hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

II – BOB. O'QUV MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILAR IDROKINI SHAKLLANISHINI O'RGANISH.

2.1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idrokining shakllanishining psixologik xususiyatlari

Idrok huddi tafakkur va xotira singari bilish psixik jarayonlariga taalluqlidir. Insoning obektiv dunyosi sezishlarni umumlashtirish yo'li bilan yaxlit bilishi mano shundan boshlanadi. Sezgi va idrok uchun umumiy bo'lgan xususiyat ularni dunyoning analizatorlariga bevosita tasiri vaqtida paydo bo'lishidir. Biroq bu ikki jarayon o'z mazmuniga ko'ra bir- biridan farq qiladi.

Idrok sezgi azolarimizga tasir qilib turgan narsalarning ongda bevosita aks etishidir. Biz narsa va xodisalarni yaxlit xolicha idrok qilamiz. Narsalarning ayrim xossalarini esa sezamiz. Masalan: quyoshni biz idrok qilamiz, issiqligini sezamiz. Ammo xossa va narsa bir- biridan ajralmasdir. Shu sababli narsalarni idrok qilish ham sezgilardan ajralgan holda voqea bo'lishi mumkin emas.

Biz bu narasani idrok qilayotganimizda uning ayrim xossalarini sezamiz. Biror narsani o'zini idrok qilmasdan xosil bo'ladigan sezgilar yani tug'ilgan chaqaloq hayotining dastlabki kunlarida mavjud bo'lsa kerak; chaqaloq narsaning o'zini idrok qila bilmasa ham undan xosil bo'ladigan sezgilarni ajratadi, masalan, yorug` va qorong`uni, shirin va nordonni sezadi. Odamning murakkab psixik hayotida ayrim sezgilar faqat idrok jarayonida fikriy analiz va abstraktlashtirish yo'li bilan ajratiladi. Sezgilar odamda sodda elementlar psixik jarayonlar deb hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Biz idrok qilayotgan narsalar g'oyat xilma- xildir. Bular jumlasiga avvalo turli buyumlar, chunonchi binolar, daraxtlar, jihozlar va hokazolar kiradi. Biz musiqa, surat, rasm va boshqa sanat asarlarini idrok qilamiz. Odamning hayotida nutqni og`zaki va yozma nutqni idrok qilish eng katta va muhim o`rin tutadi. Atrofimizdagi narsa va xodisalar bir- biridan ajralgan holda emas, balki hamma vaqt idrok qilinib turgan narsa boshqa narsalrdan mahkam va vaqt jihatidan bir-biri bilan bog`langan holda idrok qilinayotganini har bir o`z kundalik tajribasidan yaxshi biladi. Masalan stolni idrok qilayotganimizda biz uning joyini, atrofini o`rab turgan stollarni shu paytda

radiodan eshitilayotgan musiqani ham idrok qilamiz xona ichidagi radiopriomnikni ham, kishilarni ham bor vaqtda ko`ramiz.

Biz narsa va xodisalarni makon va zamon sharoitida idrok qilamiz. Makon va zamon sharoitida idrok qilamiz moddiy borliq formasi sifatida barcha boshqa reallik kabi idrok qilinadi. Buning manosi shuki, biz narasalarni ularga xos bo`lgan fazodagi formalari, fazodagi katta-kichikligi, fazodagi munosabatlarga qarab idrok qilamiz, ular tinch yoki harakat holatlarda idrok qilinadi. Biz idrok qilib turgan narsa va xodisalarni malum bir vaqt davomida paydo bo`lish va o`zgarib borishlarida idrok qilamiz.

Idrokda – 1) idrok jarayoni yani ongimizning bevosita aks ettiruvchi faoliyatni va. 2) narsalarning idrok qilishdan hosil bo`ladigan subektiv obrazni bir-biridan farq qilishi lozim. Idrokning natijasi doimo yaxlit obrazdir. Shuning uchun idrok narsalarning faqat ayrim xusuiyat hamda sifatlarini aks ettiruvchi sezgidan farq qilib, doimo yaxlit va narsalidir. Idrok bir qator analizatorlardan keluvchi sezgilarni birlashtiradi. Inson idroki hayvonlar sezgilari kompleksdan farq qilib idrok qilinayotgan narsani tushunishni o`z ichiga oladi.

Idrok to`liq va chala, chuqur va yuzaki, aniq va xato yoki illiyuziya, tezkor yoki sust bo`lishi mumkin. Ularning barchasi sezgi organlarining sezgilariga oldin egallangan tajriba va bilimlarga kuzatishning diqqat etiborligiga, idrok qiluvchining qobiliyati va aqliy o`sganligiga izchil idrok qilish hamda idrok qilinayotgan obektning turli tomon va xususiyatlarini baholay bilishga bog`liq bo`ladi. Kishilar o`rtasidagi individual farqlarning muhim hususiyati idrok qilish tezligi o`rtasidagi farqdir yani quzg`atuvchining o`zini deyarli aniq idrok qilishi uchun tasir vaqtining eng kam blishidadir qo`zg`atuvchi qanchalik murkkab bo`lsa uni idrok qilish vaqti shunchalik kam bo`ladi. Idrok qilish tezligi mashq qilish natijasida oshadi. Idrok qilish tezligi charchash kasallik vazo`riqish tasirida pasayadi.

Masalan quyidagi misollar orqali kichik maktab yoshidagi o`quvchilarni idrokini shakllanishini ko`rib chiqamiz. Hayvonlarning tashqi qiyofasi, yashash tarzi xususiyatlarini ajrata bilish va xarakterlash orqali kichik maktab yoshidagi

o'quvchilarning idrokini shakllantirish, ular qaerda yashaydi, o'ziga qanday uy quradi, qanday yuradi, kuzda, qishda nima bilan oziqlanadi, qishga qanday tayyorgarlik ko'radi. Bolalarni hayvonlarning ko'rinishi va xulqidagi umumiylik va o'xshashliklarni ajrata bilishga, bir-biriga o'xshashligiga qarab xulosa chiqarish (o'rmon hayvonlari, yirtqich hayvonlar)ga o'rgatish.

Ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish.

Bolalar diqqatini kuz faslida ob-havo o'zgarishiga, daraxt barglarining sarg'ayib to'kilishiga, kishilar kiyimidagi o'zgarishlarga, hashorat va qushlarning kamayib qolganiga qaratish, bularning sabablarini mustaqil aytib berishga o'rgatish

Kuz faslining eng go'zal xususiyatlari turli-tuman yorqin ranglarga boy ekanligi haqidagi bilimlarini aniqlashtirish. Bu davrda meva va sabzavotlar g'arq pishadi, yig'im-terim mavsumi boshlanadi. Kuz fasli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish hamda mustaqil ravishda kattalarga yordam berishga odatlantirish


Bolalar ongiga tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani zararlamaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, gullarni yulish oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongiga singdirish orqali kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning idrokini shakllantirilib boriladi.

Uy hayvonlari (tuya, ot, sigir, qo'y, echki) va parrandalar (tovuq, xo'roz, kurka, o'rdak, g'oz)ning asosiy turlari, hayoti va sharoitlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash va sistemalashtirish. quyidagi belgilar asosida umumlashtirilgan tasavvurni tashkil qilish, odamlar yonida yashaydigan va undan qo'rqmaydigan hayvonlar, foyda keltiradigan hayvonlar, insonlar, ularning hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishi, uy hayvonlarining kishilar hayotida tutgan o'rni haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, o'quvchilarning idrokini shakllantirish orqali ularda g'amxo'rlik tuyg'ularini mustahkamlanadi.

Masalan Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning idrokini o'rganish uchun mo'ljallangan ushbu metodikada o'quvchi rasmning bir necha qismlari yordamida butun rasm qanday ekanini bilishi talab qilinadi.

«Nima tasvirlanganini top»

Metodika quyidagicha o'tkaziladi: Bolaga rasmning A qismi ko'rsatiladi va shu asosda rasmda nima tasvirlanganini topish taklif etiladi. Buning uchun 10 soniya vaqt beriladi. Agar bolalar bu vaqt ichida nima tasvirlanganini topa olmasa yana 10 soniyaga unga rasmning B qismi ko'rsatiladi. Shu tariqa rasm qismlari to o'quvchi unda nima tasvirlanganini bilmaguncha ko'rsatiladi.



Natijalarni baholash:

10 – ball – o'quvchi A qismdan 10 soniyadan kam vaqt ichida rasmda it tasvirlanganini topdi.

7 – 9 ball – o'quvchi B qismdan jami 11 – 20 sonli vaqt sarflab rasmda it tasvirlanganini topdi.

4 – 6 ball – o'quvchi V qismidan vaqt 21 – 30 soniyaga yetganda rasmda it tasvirlanganini topdi.

2 – 3 ball – o'quvchi G qismdan vaqt 30 – 40 soniyaga yetganda rasmda it tasvirlanganini topdi.

0 – 1 ball – o'quvchi jami 50 soniyadan ortiqroq vaqt sarflab A, B va V qismlarni ko'rib ham it tasvirlanganini topa olmadi.

Rivojlanganlik darajasi:

10 ball – juda yuqori, 8 – 9 ball – yuqori, 4 – 7 ball – o'rta, 2 – 3 ball – past, 0 – 1 ball – juda past.

O'quvchilarda birorta qiyin yoki murakkab ishni muvaffaqiyatli bajarish natijasidagi quvonch bilan qo'zg'alganlik idrokni o'tkirlashtiradi. Bajarilgan ish qanchalik qiyin va masuliyatli bo'lgan bo'lsa quvonch xissi shunchalik kuchli keyingilarini idrok qilish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi. Idrok doimo konstant (yani doimiy)dir. Bevosita bilish undan oldingi tajriba bilan to'ldiriladi, shuning uchun ham u doimo anglangan bo'ladi va uni so'z bilan u yoki bu darajada to'liqroq ifodalash mumkin. Idrok tanlovchandir, yaxlitning zarurroq bo'lgan detallari aniqroq idrok qilinadi. Ongning aktivligi idrokning tanlovchanligida namoyon bo'ladi.

Idrokning tanlovchanligi idrok qilinayotgan narsalarning obektiv xususiyatlariga ham subektiv holat jumladan operatsiyaga ham bog'liqdir. Operatsiya idrokning inson psixik hayotining umumiy mazmuni uning tajribasi, qiziqishi yo'nalganligiga bog'liqdir.

Ishlab chiqarish faoliyatida o'z psixalogik strukturasiga ko'ra murakkab bo'lgan idroklar, masalan, vaqt, harakat, fazoni idrok qilish idroklari alohida o'rin tutadi. Vaqtni idrok qilish tashqi dunyo hodisalari oqimining davomiyligi, izchilligi va tezligini, shuningdek, organizm hayot faoliyatining ichki ritmlari hamda sezgilar haqida signal beruvchi bir qator sezgilarni umumlashtiradi. Sezilarli, jiddiy, qiziqarli xodisalarga boy bo'lgan soat, kun, haftalar tez o'tuvchi va qisqa etiborga arziydigan hech qanday xodisa ro'y bermagan hamma narsalar oddiy, odatiy bir xil bo'lgan vaqt bo'lagi juda uzoq tuyuladi. qoniqish, shodlanish odatda yetarlicha baxo berilmaydi ko'ngilsizlik zerikish bilan o'tgan vaqt esa ortiqcha baxolanadi. Ko'p narsalarni ajratilgan vaqt juda qisqa tuyuladi. O'tgan vaqtni esa tushurib baholash boshqacharoqdir: qiziqarli detallarigacha eslab

qolingani xilma-xil xodisalarga boy bo'lgan vaqt bo'lagi eslanadigan narsasi bo'lmagan davrdan uzunroq deb boshlanadi.

Ishlab chiqarish ishi amaliyotida vaqtning kichik bo'lagini kattalashga bo'lgan qobiliyat anchagina tez o'sadi. Besh kunlik maxsus mashq qilish insonga 0,01 – 0,02 sekunt vaqtni belgilash uchun kifoyadir.

Fazoni idrok qilishning asosini ko'rish vestibulyar xarakat va teri sezgilari tashkil qiladi. Ularning hammasi birgalikda insonga o'z gavdasining vertikalga munosabatini fazodagi xolatini va boshqa ob'ektlargacha bo'lgan oraliqni baholash imkonini beradi. Bu informatsiya manbalari o'rtasida fazodagi xolat xaqida turli formadagi «kelishmovchiliklar» oqibatida bir qator fazoviy illiyuzalar paydo bo'ladi.

Illyuza borliqni noto'g'ri aks etishidir. Ularning jismoniy, fizologik, psixologik sabablari keltirib chiqarish mumkin.

Jismoniy sabab keltirib chiqargan illyuzaga stakandagi choynakga solingan qoshiqni siniq deb idrok qilishni misol bo'ladi. Agarda ko'zimizning tagiga yon tomonidan barmog'imizga biroz botirsak ko'rib turgan narsaimiz biroz ikkilanadi. Bu fizologik sabab uchun misoldir. Kontrast natijasida bo'ladigan shuningdek psixologik illyuzaning vertikal chiziqlar uzunligiga nisbatan ortiq baxolonishining amaliy ahamiyatini aytib o'tish lozim. Illyuziyalar faqat idrokdagina emas balki xotira, tafakkur, umuman aks etirishning barcha formalarida bo'ladi. Shunday bo'lsada idrokdagi illyuziyalar ko'pincha narsalarning hajimlari parallelligi va bir biridan uzunligini aniqlashdagi xolatlariga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun aniqlash ta'lab qilinadigan joylarda ko'ruv idroki o'lchov asboblari bilan o'lchab tekshirilishi lozim.

Harakatni idrok qilish fazo vaqtidagi o'rin almashinuvi idrok qilish bo'lib xarakatni baholash vaqt intervallarini idrok qilishga bog'liq bo'ladi, chunki fazodagi har bir xarakat tezligi va yo'nalishi bilan xarakatlanadi. Bu ishlab chiqarish ishida masalan ishlab turgan mexanizmning xarakatlanib turgan qisimlarini kuzatishda katta ahamiyatga egadir. Bu vaqtda xarakatning turli tamonlari shakli, yo'nalish tezligi idrok qilinadi. Biroq xarakatning hamma

tomonlarini ham ko`rib sezib olish va to`g`ri baholash mumkin emas. Anchagina sekin harakat masalan soat sterelkasining yurishi bevosita ko`rib idrok qilinmaydi.

Idrok qilish bizning qiziqishlarimiz hamda irodamiz bilan qay darajada bog`liqligiga ko`ra ixtiyorsiz va ixtiyoriyga ajralishi mumkin. Ixtiyorsiz idrok kuzatishda yaqqol namoyon bo`ladi. Kuzatish bu malum aniq anglangan maqsad bilan qilinadigan hamda ixtiyoriy rejali idrokdir.

Kuzatish muvaffaqiyatli bo`lishidan asosiy sharti-vazifaning aniq bo`lishining va unda tayyorganlikdir. Tafakkurning yuqori aktivlagi kuzatishdagi muvaffaqiyatning uchunchi shartidar kuzatish bu quruq maqsad bo`lmay balki inson faoliyatining keyingi yo`nalishlarini belgilab beruvchi axborotlarni olish vositasidir.

Faoliyat formasi bo`lgan kuzatish oriyantiravka yani bir narsa haqida etarlicha to`g`ri tasavvur olish atrof muhitni anglay bilish bilan uzviy bog`liqdir.

Kuzatuvchanlikning o`ssishi qiziquvchanlik, zehnlilik yangi narsalarni bilish uchun doimiy intilishni o`rab turgan o`zi hayotda mehnatda to`qnash keladigan narsalarni chuqurroq anglashga intilishni nazarda tutadi. Kuzatuvchan kishi doimo «faktlar ketidan quvib yuradi» deyish mumkin. Kuzatuvchanlik bu malum maqsad uchun ayniqsa kerakli narsani idrok qilishga doimo tayyor turishdir. O`quvchilarga kuzatuvchanlikni shakllantirish va o`stirish ularning idrok va sezgilarini shakllantirishning asosiy vazifasidir.

Idrokning narsaliligi obektivlash deb atalgan vaqtda yani tashqi olamdan olingan malumotlarni shu olamning o`ziga ana shunday qaramasdan turib odamning amaliy faoliyatida o`zi yo`lovchilik va boshqaruvchilik vazifasini o`tay olmaydi. Idrokning narsaliligi tug`ma sifat hisoblanmaydi; subektga olamning narsaliligini ochib berishda taminlaydigan malum harakatlar sistemasi mavjuddir. Bu erda tuyish va harakat sezgilari hal qiluvchi va rol o`ynaydi. S. M. Sahenov idrokning preedmetliligi narsaning yani idrok qilayotgan narsaning o`zi bilan aloqasini taminlovchi jarayonlar asosida tarkib topishini takidlagan edi. Harakatlar qatnashmagan taqdirda bizning idrokimiz narsalik sifatida ega bo`lmagan yani tashqi olam obektiga qaratilmagan bo`lar edi.

B.G. Anan'ev tomonidan bemor kishining ko`rish analizatori va oddiy farq ajratish sezgilariga doir davomiylik elementlari saqlanib qo`yganda narsalarni ko`rish idrokning buzilish xodisasi tasvirlab berilgan kondutiya natijasida bemorning bosh miyasi organik jihatdan shikastlangan va ko`z soqqalari to`la harakatlangan. Ko`rish sezgisi tiklanishining birinchi bosqichi davomida yaxlit fazoda o`zining yorqinligi va katta kichikligi jihatdan har turli bo`lgan shaklsiz, manosiz dog`larning ajralib ko`rina boshlaganligi qayd qilingan. Uch oy davomida ko`zning ko`rishini taminlash ishlari olib borilgandan so`nggina bemorning ko`zi faqat sezib qolmay, balki idrok qila oldigan bo`lgan. Narsalilik idrokning sifati tasirida ish-harakatlarini boshqarishda alohida ahamiyat kasb etadi. Tashqi olmdan olingan malumotlarni ana shu olamning o`ziga solishtirib ko`rish idrok obrazining real narsalariga adekvat (mos) ekanligini nazorat qilishini taminlaydi. Bitta g`isht bilan portlovchi modda balki bir xilda ko`rinisha va dastlab ko`ringanda juda o`xshash narsalar tarzida idrok qilinishi mumkin.

Idrokning narsaliligi keyinchalik perseptif jarayonlarning tarkib topishida ham katta ahamiyat kasb etadi. Tashqi olam bilan uni aks ettirilishi mos kelmay qolgan holda odam to`g`riroq aks ettirishini taminlovchi idrokning yangi usullarini qidirishga majbur bo`ladi.

Idrokning boshqa xususiyatining yaxlitligidir. Idrok sezgi azolariga tasir etuvchi narsalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib narsalarning yaxlit obrazidir. O`z-o`zidan ravshanki, bu yaxlit obraz har xil moduldagi sezgilar orqali olingan narsaning ayrim xususiyat va sifatlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi.

Idrok qilinayotgan subyektga atrofdagi obektlar erkinlik holati darajasining ko`pligi natijasi va bu atrofdagi obektlar erkinlik holati darajasining ko`pligi natijasida ular toatovsiz o`z qiyofalarini o`zgartirib turadilar. Har xil tomonlari bilan burilib namoyon bo`ladilar. Bunday holda proseptiv jarayonlar ham tegishli ravishda o`zgarib ketadi. Biroq proseptiv sistemaning bu o`zgarishlarning o`rnini bilish yani tiklash qobiliyati bo`lmish konstantlik xususiyati tufayli biz

atrofimizdagi narsalarning shakli katta-kichikligi rangi va shuning kabilirga nisbatan o'zgartarizda idrok qilamiz.

Idrokning bu xususiyati narsalarning katta-kichikligi misolida tushuntirib beramiz.

Idrok jarayonidagi konstantlik hodisasining haqiqiy manbasi perseptiv sistemaning aktiv harakatidir. Retseptor apparatlari harakatining har turli va o'zgaruvchan oqimidan hamda shular bilan bog'liq javob sezgilaridan subyekt idrok qilinayotgan obektlarning nisbatan doimiy invariant (o'zgarmaydigan) strukturalarni ajratib oladi. Bir xildagi obektlarni har xil shartlarda ko'p martalab idrok qilish anashu o'zgaruvchan shartlarga nisbatan perseptiv obrazning o'zgarmasligini invariantligini hamda shuning bilan birga retseptor aparati harakatlarining ham o'zgarmasligini taminlaydi binobarin aks ettirilayotgan obrazning kamsanfanligini yuzaga keltiradi bunda idrok shartlarining o'zgarishi va kuzatuvchi sezgi o'zlarining aktiv harakatlari natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar o'z-o'zidan sal bo'lsa ham sezilmaydi, faqat qandaydir nisbatan o'zgarmas narsa masalan biror narsaning shakli uning katta-kichikligi va shu kabilar idrok qilinadi.

“Noto'g'ri vaziyatlar”

Ushbu metodika bilan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idrokining rivojlanish darajasini aniqlashga mo'ljallangan.

Jihoz: Noto'g'ri vaziyatli rasmlar.

Tekshiriluvchiga ko'rsatma: "Rasmlarga diqqat bilan qara, nima noto'g'ri tasvirlanganini aytasan".

Tekshirishning borishi: Tekshiriluvchi 30 sekund davomida rasmlarni ko'radi va noto'g'ri vaziyatlarni aniqlaydi. (Noto'g'ri vaziyatli 10 ta rasm bo'lishi lozim).

Eslatma: Har bir noto'g'ri vaziyatni topgani uchun 1 ball qo'yiladi. Quyidagi shkala baholari bilan daraja aniqlanadi:

I- 10

II-9

III-7

IV- 5









V - 3 va quyi

Vaziyatlar ballar

1. Velosipedning to'rtburchak g'ildiragi.
2. Terak daraxtida olmalar,
3. Chumchuqda 4 ta oyoq bor.
4. Olma daraxtida tarvuzlar turibdi.
5. Ona choynak bilan dazmollayapti.
6. Bir vaqtning o'zida qo'yosh va oyning turishi.
7. Dazmol suzayapti.
8. Quyosh charaqlab turibdi, lekin qor yog'ayapti.
9. Bolaning boshi va qo'li oldinga qaragan, oyoqlari esa orqaga qaragan.
10. Xo'roz uchayapti.

Natijalar bahosi:

1. 24 va yuqori — juda yuqori daraja
- II. 14 dan 23 gacha - yuqori daraja
- III. 0 dan 13 gacha — o'rtacha daraja
- IV 1 dan -10 gacha — past daraja
- V. II va quyi — juda past daraja



Atrofdagi benihoyat turli tuman narsalarning yashash sharoitlari yuzaga keltirgan muqarrar xatolarni kuzata oladigan praseptiv sistemalarning qobiliyati ko`zoynaklar bilan o`tkazilgan tajribada yaxshi ko`rinadi bunday ko`zoynaklar ko`rish idrokining obrazlarini teskari qilib buzib to`g`ri chiziqlarni qiyshaytirib yuboradi. Odam narsalarni yanglish qilib ko`rsatuvchi ko`zoynakni taqib notanish xonaga kirib qolsa, u ko`zoynaklar tug`dirgan xatolarni asta- sekin to`g`irlashga o`rganadi va nihoyat, garchi bu xatolar uning ko`z to`r pardasida xaqiqatda mavjud bo`lsa ham xatolarni sezmay qoladi.

Shunday qilib konstantlik xususiyatini shuning bilan tushuntirib berish mumkinki idrok teskari aloqa mehanizmiga ega bo`lgan va idrok qilinayotgan obektning xususiyatlariga hamda yashash sharoitlariga muvofiqlashadigan o`ziga xos o`z-o`zini boshqaradigan harakatdir. Narsalar bilan qiladigan faoliyatda tarkib topadigan idrokning konstantligi hayoti va faoliyatida zarur sharoitlaridandir. Odam benihoya turli- tuman o`zgaruvchan olamni anglay olmas edi. Konstantlik xususiyatida narsalar bilan ularning yashash sharoitlarini birlikda aks ettirib tevarak atrofdagi olamning nisbiy barqarorligini taminlaydi.

Garchi idrok qo`zg`atuvchining retseptorlariga bevosita tasiri natijada yuzaga kelsa biroq retseptiv obrazlar hamma vaqt malum manoga ega bo`ladi. Odamning idroki tafakkur bilan narsaning mohiyatini tushunish bilan mustahkam bog`liqdir. Narsani ongli idrok qilish degan so`z uni fakrlash, atash degan manoni bildiradi bu esa idrok qilgan narsani malum guruhga sinfga kiritish yani uni so`z orqali umumlashtirishdir. Xatto notanish bir narsani ko`rganimizda, biz bu narsada o`zimizga tanish bo`lgan narsalardagi o`xshash tomonlarni payqashga uni bazi kategoriyalariga qo`shishga intilamiz. Idrok qilingan narsa shunchaki sezgi organlarimizga tasir qilayotgan qo`zg`atuvchilarni jamlash bilan aniqlanmaydi balki idrok qilingan narsa haqida bor malumotlarni yaxshilab tushuntirib berish yo`llarini dinamik qidirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki idrok aktiv jarayon bo`lib bu jarayon davomida narsa obrazni adekvat aks ettirish uchun odam juda ko`p praseptiv harakat qiladi. Idrokning aktivligi dastavval idrok jarayonida effektor (harakat)

komponentlarining ishtirok etishidir (tuyish) idrokda qo`l harakatlarini tuyish ishtiroki ko`rish idrokda ko`z harakatlarining ishtiroki va shular kabilar. Bundan tashqari idrok jarayonida katta darajadagi aktivlik talab etiladi yani idrok jarayonida o`z gavdasini aktiv ravishda talab qilinadi.

Idrok yani yuzaga keltirgan qo`zg`atuvchi bilan birgalikda idrok qilayotgan subektning o`ziga tegishli bir qator faktorlarga bo`liqdir. Yakka holda olingan ko`zni o`zi yoki yakka quloq o`z-o`zicha idrok qilinmaydi. Kontur trik odamning idrokiga hamisha malum darajada odam shaxsning xususiyatlari yani uning idrok qilayotgan narsaga bo`lgan munosabati ehtiyojlari qiziqishlari, intilishlari xoxishi va xususiyatlari tasir qiladi. Idrokning odam psixik xayoti mazmuniga va odam shaxsining xususiyatlariga bog`liqligi aperiatsiya deb yuritiladi.

Juda ko`p malumotlar shuni ko`rsatadiki, subyekt tomonidan idrok qilayotgan tasir ayni shu daqiqadagi sezgilarning shunchaki oddiy yig`indisidan iborat emas idrok qilayotgan tasvir shunday detallarga ega, bunday detallar ayni chog`da katta ko`z to`r pardasida ham yo`qdir lekin odam ilgari tajribalari asosida xuddi ko`rayotgandek bo`lib turadi.

Idrok gipotezalarini qo`yish va tekshirib ko`rish uchun informatsiyalaridan foydalaniladigan aktiv jarayondir. Bu gipotezalarni xarakteri esa shaxsning o`tmish tajribasi mazmuni bilan belgilanadi. Ilmiy tadqiqot ishlari natijalarining ko`rsatishicha tekshiriluvchilarga to`g`ri va egri chiziqlarning ixtiyoriy qo`shilmasidan iborat bo`lgan notanish figura ko`rsatilsa idrokning birinchi fazasidayoq idrok qilayotgan obektni solishtirib ko`rish mumkin bo`lgan detallarni (nusxalarni) qidirish ishlari amaldga oshirishdi. Idrok jarayonida obektning biror guruhga taalluqli ekanligi gipoteza ilgari surildi va tekshirib ko`rildi.

Shaunday qilib qandaydir biror narsani idrok qilishda o`tmishdagi idroklarning izlari ham aktivlashadi. Shuning uchun tabiiyki bitta narsaning o`zi har bir odam tamonidan turlicha idrok qilinadi va qayta esga kelitiriladi.

Idrok subektining o`tmish tajribasiga bog`liqdir. Odamning tajribasi qanchalik boy bo`lsa idroki ham shunchalik boy bo`ladi. Odam idrok jarayonida narsaning shunchalik ko`p tamonlarini ko`ra oladi.

Idrokning mazmunini odamning oldiga qo`yilgan vazifalar hamda faoliyatning motivlari bilan aniqlanadi.

Masalan aktrisa ijrosida musiqa asarini eshitar ekanmiz biz uni jo`r bo`layotgan yaxlit bir ohang sifatida idrok qilamiz. Ogoh va jo`r bo`lish yaxlit bir gramatik hamohanglikka birlashib ketib alohida asboblarning ovozi ajratib bo`lmay qoladi. Ammo agar biz o`z oldimizga biror cholg`u asbobning ovozi ajratish vazifasini qo`yadigan bo`lsak, bir qator zo`r berib buning uddasidan chiqish mumkin. Bunda biz ajratgan asbobning ovozi alohida ajratib qogan ovozlar umumiy bo`lib eshitiladi.

Idrok jarayonida tuyg`ular ham ishtirok etadi. Tuyg`ular idrokning mazmunini o`zgartira oladi.

Tuyg`ular tufayli yuzaga keladigan o`zgarishlarning idrok jarayonidagi muhim roli bir qator turli tajribalar bilan tasdiqlangan.

Idrok jarayoniga subektning ilgarigi tajribalarning tasiri haqidagi, yani subekt faoliyatining motivlari va vazifalari ko`rsatmalari hissiy xolatlarning (odamning ishonchi va subekt dunyoqarashlari uning qiziqishlari va harakatlarini ham shular jumlasiga kiritish mumkin) tasiri haqidagi yuqorida aytilgan hamma gaplardan malum bo`lishicha idrok boshqarish muhim bo`lgan aktiv jarayondir.

2.2. O'quvchilar idrokini shakllanishida ko'rgazmali qurollarning psixologik xususiyatlari.

Bolalik bolaning atrofidagi muhitdan juda katta ta'surotlar oladigan yoshidir. Balalar uchun ayniqsa maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi balalar uchun juda ko'p narsalar yangi bo'lganligidan ham ular qiziqarli bo'ladi. Lekin bolalar hamma narsani ko'zdan kechirishni, qo'l bilan ishlashni yaxshi ko'rishlariga qaramay ular katta yoshdagi kishilarning tushuntirishlariga astoydil quloq soladilar, tevarak atrofdagi, narsa va xodisalarga ko'pgina narsalarni sezmaydilar. Buning sababli bolalar idrokining o'ziga xos xususiyatlaridir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kuzatishlari bir muncha yuzakiligi va aniq maqsadga qaratilganligi etishmasiligi bilan farq qiladi. 1-sinf o'quvchilariga olmoxon tasviri tushirilgan bo'yoqli suratni ko'rsatishdi. So'ngra bolalarga olmoxonning rasmini o'z xotiralari bo'yicha chizish taklif etiladi. Shunda «olmoxonning dumi qanday?» «uning mo'ylovlari bormi?» «uning juni qanday rangda?» «ko'zlari qanday?» vahokozo savollar beriladi. Bu savollar shuni ko'rsatadiki, bolalar garchi olmoxonning rasmini chizishlarini bilsalar ham umlar olmoxondagi juda ko'p narsani ko'rishmagan.

Idrokning yuzakiligi shunga olib keladiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar narsaning yarim belgilarini yaxshi sezmaydilar ularni bir biri bilan bog'lamaydilar va uning eng muhim sifatlarini ko'rmaydilar. Yorqin xatti-xarakat qiladigan hamma narsalar ularning diqqatini o'ziga tortadi. Shuning uchun ko'zga yaqqol ko'rinib turadigan narsalarni bolalar muhim abstrakt materialga qaraganda yaxshiroq idrok qiladilar. Lekin yil sayin kichik yoshdagi o'quvchilarning idroki ancha tetik etuk to'liq bo'lib boradi. Idrok qilinadigan narsalardagi ikkinchi darajali narsa keyingi rejaga o'tib, muhim asosiy narsa aniq ko'zga tashlanadi. Ikki aka ukaning do'konda o'yinchoq tanlashi idroklarining ana shunday rivojlanishini ko'rsatuvchi misol bo'lishi mumkin. Birinchi sinf o'quvchisiga juda oddiy qilib ishlangan, yaxshi harakat qilmaydigan lekin hajmi katta, yarbo'yoqlar bilan bo'yalgan va baland ovoz bilan signal beradigan yog'och avtomabil maqul bo'ladi uning akasi bo'lgan 3-sinf o'quvchisi o'z hajmi jihatidan 2 marta kichik havo rang

bo'yoqli lekin harakat qilish uchun prujina mehanizmiga ega bo'lgan va haqiqiy mashinaga ancha o'xshayotgan metal avtomobilni afzal ko'rdi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning idrokida ko'pincha analiz va sintezining yetishmasligi ko'rinib turibdi. Masalan bola havo to'pponchasining harakatini bilgani holda to'pponcha qanday qismlardan tashkil topgani va qanday prinsip bo'yicha ishlashini gapirib bera olmaydi chunki u analiz qilishni bilmaydi. Bazan aksincha bola ayrim hodisalarni sezadi-yu lekin ularni birlashtirishni bir butun qilib sintezlashtirishni bilmaydi. Masalan havoning elastikligini kuzatish tajribasi to'g'risida gapirar ekan yupqa shisha naycha ichida yog'och cho'pi harakat qilganligi sababi to'liq shovqin bilan undan «otilib keladi» dedi. Lekin naycha ichidagi siqilgan havo to'lqini otarib yuborilganligi haqida o'quvchi hech narsa aytmaydi.

Kichik maktab yoshida idrok qilish his-tuyg'ular bilan mahkam bog'langan bo'ladi. Bola atrofidagi muhitni befarq idrok etmaydiko'p narsalar ularni quvontiradi va xafa qiladi. Shuning uchun o'quvchi asosiy etiborini garchi his-tuyg'ularini uyg'otmasada ham o'z-o'zidan muhim bo'lgan narsalarga emas balki o'zida his- tuyg'ular qiziqish uyg'otadigan narsalarga qaratadi. Bola bazan narsalarda kattalar sezmaydigan, chunki muhim ahamiyatga ega bo'lmagan narsalarni ko'rsatib o'tishga sabab ham o'sha.

Ana shu yoshdagi o'quvchilarda idrok qilish ko'pincha noaniq bo'ladi. Ular bir- biriga o'xshash narsalarni aynan bir xil narsalar deb qabul qiladilar. Chunki shaharlik bolalar chittakni qarg'a deb qabul qilishlari mumkin idrok qilishning aniqligi 1-sinf o'quvchilariga kitob o'qish vaqtida ular o'qilayotgan so'zni aytib yuboradilar. Masalan «o'yladi» o'rniga «o'ynadi» deb, «bahor» o'rniga «baho» deb o'qiydilar. Shu bilan birga ular mazkur so'zning matn bilin bog'lanishini mutloq o'ylamadilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda makonni idrok qilish ham etarli darajada rivoj topmagan ular asosiy uzunlik o'lchashlarining nomini biladilar-u lekin ularda masalan bir kilometrda teng bo'lgan masofaning qancha bo'lishi to'g'risida harakat tasavvur yo'q. Chunki ikkinchi sinf o'quvchisi o'zi yashayotgan

uy bilan maktab orasidagi masofa 2 kilometr bo`ladi. Aytgan haqiqatda esa maktab ikkinchi kichik kvartaloralig`idagi masofada joylashgan bo`lib aftidan bola ulardan har birining uzunligi bir kmga teng deb hisoblangan.

Kichik maktab yoshidagi quvchilarda idrok qilish sust rivoj topgan. Bazan bolalar dars va soat vaqt jihatidan bir-biriga teng deb hisoblaydilar. Bir bolaga o`ynab kelish uchun ruxsat berar ekanlar, uyga bir soatdan qaytib kel deb qat`iy buyuradilar. U oradan 20 daqiqa o`tgandan keyin keladi va erta qaytganiga hayron bo`ladi. Lekin bolalar uchun katta vaqt oraliqlarini va «davr», «ega» singari mavhum tushunchalarni idrok etish ayniqsa qiyinlik qiladi bazan kichik maktab yoshidagi o`quvchilar o`zlaricha davr orasidagi vaqtlarni qisqartirib bazan ularni uzaytirib yuboradilar. Masalan birinchi sinf o`quvchisi bo`lgan bir bola bobosidan siz mamintlarni ovlaganmisiz deb so`ragano uchinchi sinf o`quvchisi esa eramizning boshlanishiga qadar bo`lgan qadimgi Gretsiyadagi hayot haqida gap ketganda o`sha vaqtda ikki oyoqli kaltakesaklar Afinadagi uzoqda yashaganmi yo`qmi deb qiziqqan. Bolar idrokining zamon talablariga shu narsa sabab bo`ladiki ularda bilim vva tajriba yetishmaydi lekin ana shu bilim va tajriba paydo bo`lib borgan sayin bola dunyoni tobora aniqroq va to`g`riroq idrok qila boshlaydi. Bu jihatdan ham maktabdagi talim- tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi bola har bir narsaga berilib o`ta sinchiklik bilan qarshlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o`zlashtirish imkoniyatga ega bo`ladilar. Buning sababi ularning oliy nerv faoliyatidagi birinchi signal sistemasi ustunligi bilan izohlash mumkin. Boshlang`ich sinf o`quvchisi har qanday obekt subekt va voqealikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga qaratiladi uni atrof olamning sirli sehrli jilolanishining jozibasi o`ziga tortadi. Lekin talimning dastlabki bosqichida idrokning ayrim zaif tomonlari ko`zga tashlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar idrokning salbiy xususiyati obektning bir-biridan farqlashdagi zaiflikdir. Ular ko`pincha o`rganiladigan materialni noaniq xato noto`g`ri idrok qiladigan buning oqibatida aynan o`xshash harflar so`zlar narsalar tasiri shakli fazaviy joylashuvining farqini to`la tasavvur qila olmaydilar. Masalan «q», bilan «k» harflarini «aylana» bilan «doira» shakllarini bir biridan

farqlamaydilar. Bazen esa ular kattalarning idrok ko`lami qarab olmaydigan narsalarni payqamaydilar.

Bolalarda tartibli maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati zaifligi uchun ular ko`pincha talim jarayonida xatoga yo`l qo`yadilar. Odatda zarur va muhim malumotlar bir yoqda qolib tasodifiy belgilarga etibor beradilar. Bu yoshdagi bolalarning idroki o`zining xatti-harakati o`yin va mehnat faoliyati bilan bevosita bog`liqdir. Qandaydir narsani idrok etish o`sha narsa bilin mashg`ul bo`lishi anglatib keladi.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar idrokning yana bir xususiyati xilma-xil yorqin bo`yoqlar yaqqol tasvir va xis-tuyg`uga boyligidir shuning uchun ular avvalo ular yorqin his-tuyg`u uyg`otadigan narsa va hodisalarni idrok qiladilar. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining suratlar bilan ham bezatish maqul emas chunki bunda o`qish surati sekinlashadi xatolar ko`payadi suratning ko`pligi bolalarni matndan chalg`itadi. Bolada muayyan o`qish malakalari hosil bo`lgandan keyin kitob varaqlarini suratlar bilan bezash va uning nutqining o`sishiga mavzu va fanga qiziqish ortishiga yordam beradi.

Talim jarayonida kichik maktab o`quvchilarining idroki maqsadiga muvofiq boshqariladigan perseptiv faoliyat darajasiga ko`tariladi bola o`quvchining rahbarligida shaxsiy idrokini tashkil etish o`z oldiga vazifa qo`yish idrok mahsulini nazorat qilish va hokazolarni o`rgana boradi. O`quvchi talimning dastlabki bosqichida oqilona idrok etish uchun harakat qiladi. Bunda idrok etish asosiy maqsad bo`lsa, harakat qilish idrokning sharti vazifasini bajaradi.

Talim jarayonida idrok maqsadga muvofiq perseptiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi natijada o`quvchida kuzatish nazorat qilish farqlash imkoniyati oshadi. Shu atash bilan chegaralangan bo`lsa keyinchalik u o`rganilayotgan obektning umumiy manosi anglatib boshlaydi.

Idrokning takomillashuvi o`quvchilarning bevosita rahbarligida imalga oshadi u o`quvchilarga perseptiv faoliyatni omilkorlik bilan tashkil etishni obektlarning muhim nomuhim belgilarni ajratishni diqqatni to`plash va taqsimlashni, materiallarni rejali va tartibli qilishni o`rgatadi buning uchun

bolalarni sayrga olib chiqadi ko'rgazmali qurolday foydalanadi jismoniy va aqliy mehnat jarayonini taqqoslash kuzatish malakalarini shakllantiradi. Idrokni rivojlantiradigan muhim vositaning biri o'quvchilarda narsa va hodisaning o'xshash va farqli alomatlarini ajratish uquvini tarkib toptirishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining proseptiv faoliyatida fazo vaqt va harakatni idrok qilishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bolalarda hayot tajribasining yetishmasligi bilan saviyasining yumshoqligi tasavvur obrazlarining zaifligi tufayli idrokning mazkur shakllarini juda cheklagan bo'ladi. Ular kundalik turmushida qo'llanadigan oddiy fazoviy tushunchalar bilan cheklanishi sababli ilmiy fazoviy atamalarni masalan tog'larning balandligi fazo bilan er o'rtasidagi masofa dengiz va ko'llarning hajmi boshqalarni idrok etishda qiynaladilar katta fazoviy tushunchalarni anglamasliklarini sababli ularda «yulduzlarning oralig'i necha kilometr?», «osmonga sharda uchib borsa bo'ladimi, samolyotdami?» kabi savollar tug'iladi. Bolalarning vaqtni idrok qilish ham tor manodagi tushunchalardan iborat bo'ladi va ular «asr» kabi atamalarining nimaligini tushunmaydilar.

Harakat deganda bola ko'pincha jismoniy mehanik harakatni nazarda tutadi, lekin uning bialogik ijtimoiy kimyoviy harakatlari bilishi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bola hatto samolyot, raketa, qush va otning tezligi ham noto'g'ri idrok qiladi. Masalan u tabiatshunoslik darsida qirilib ketgan bahaybat kaltakesaklar haqida malumotni eshitgan bo'lsa uyga kelib buvisidan uni ko'rgan yoki ko'rmaganligini so'raydi.

Talim jarayonida o'qituvchining yordami bilan bolalarda idrok qilish shakillanadi.

Masalan;

Mavzu: "Chumoli va chigirtka"

Darsning maqsadi:

Mehnatsevarlik, do'stlikni qadrlash kabi oliy fazilatlarini namoyon etish.

Darsning metodi:

Suhbat.

Dars jihozi:

- 1) Qurt-qumursqalar va hasharotlarning qishki uyquga ketganligini aks ettiruvchi rasmlar;
- 2) "Chumoli va chigirtka" ertagining qahramonlari aks etgan rasm ishlanmasi;
- 3) Tarqatma materiallar.

Dars jarayoni

I. Tashkiliy qism:

1. **Ob-havoni, faslni, oy va kunni aniqlash;**
2. **Navbatchilar axborotini tinglash;**
3. **Qish fasli haqida suhbat;**

– Qishning o‘zga fasllardan qanday farqi bor?

Ruhsora: Qishda havo sovuq bo‘ladi, qor yog‘adi, qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadi, suvlar muzlab qoladi.

Ra’no: Bolalar issiq kiyim kiyib qorbo‘ron o‘ynaydilar, qorbobo va qorqiz yasaydilar, chana va chang‘ilarda uchadilar.

– Qishda qanday muhim sanalar bor?

Habiba: 8-dekabr - davlatimiz qomusi tasdiqlangan kun;

Shahlo: 8- dekabr - Qurbon ayiti bayrami;

Diyora: 1992 yil 10-dekabr — Davlat madhiyasi tasdiqlangan kun;

Oyatilla: 31-dekabr — Yangi yil bayrami;

Iroda: 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni;

G‘ayrat: 9-fevral — Alisher Navoiy tavallud kuni;

Said: 14-fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun.

– Qish yoki qor haqida qanday she’r bilasiz?

Hasan:

Dala dashtda tindi ish,
Mehmon bo‘lib keldi qish.
qish emas u - qorbobo,
Sovg‘alari bor bobo...

4.O‘uvchilar diqqatini jalb qilish

(O‘quvchilar birgalikda quyidagini yoddan aytadilar)

O‘zingni saqla toza,

Tozalik qanday soz-a!

Maktabning guli bo‘lg’in,

Odobning nuri bo‘lg’in.

II.Uy vazifani so‘rash

Uy vazifasi — "Qishda" hikoyasini o‘qib, so‘zlab berish.

– Yoz o‘tib salqin kuz keldi. Undan so‘ng qish keldi. Olam tinchidi, barcha harakatlar to‘xtadi. Qurt-qumursqalar uylariga bekinib oldilar. Barcha hasharotlar ham uyquga ketdi. Daraxtlar mudragan. Endi bolajonlar uyga vazifamiz "Qishda" hikoyasini o‘qib kelish, gapirib berish edi. O‘qdingizmi? Nimalarni tushundingiz? Mana bu rasmlarga qarab nimalarni gapirib bera olasiz? Hasan, hasharotlar haqida qanday qiziqarli ma‘lumotlarga ega bo‘ldingiz, siz hasharotlarning qishki uyqusi haqida nimalarni gapirib bera olasiz?

Hasan: – Qishda barcha tabiat uyquga ketadi, chigirtkalar qo‘shiqlarini to‘xtatib uhlashga shoshiladilar. Ninachilar esa uxlash uchun qulay joy izlaydi. Kuzgi yomg‘irdan so‘ng yuzaga chiqqan chuvalchanglar yana yer ostiga yashgirinadilar.

– Ra‘no, qishdan so‘ng qanday fasl keladi?

Ra‘no: – Hamma hasharotlar uyquga ketib qorbobo va qorqizning kelib-ketganini sezmaydilar. Ular faqat Bahor kelgandagina uyg‘onadilar.

– Demak, Bahor kelar ekan-da, qishdan so‘ng, to‘g‘rimi?

Ra‘no: – Ha, quyosh qorni eritib daraxtlar bir-birlari bilan silkinib salomlashadilar. Qumursqalar ham uyg‘onib quyosh bilan, ona tabiat, zamin va barcha hasharotlar bilan ko‘rishib, Bahor bilan bir-birlarini tabriklashadilar.

– Shahlo, siz yana qaysi hasharotlarni bilasiz?

Shahlo: – Qishdan so‘ng Bahorda honqizi, ninachi, kapalaklar chiqib quyoshdan bahra oladilar.

– Demak, "qish qilichini yalang'ochlab keldi" deganda nimani tushunar ekanmiz?

Zuhra: – Qahr bilan hamma jonzodni qo'rqitib uyiga quvdi, sovuq hukm surdi, degani...

– Yaxshi, bolajonlar, uyga vazifani yahshi o'qibsizlar. Qishning barcha jihatlari bilan tanishibsizlar. Bayramlar, hasharotlarning qishki hayoti, qishki o'yinlar haqida bilib oldingiz. Endi esa o'tilgan mavzular bo'yicha mana bu kartochkalardan tanlab olib birma-bir javob berasizlar. Qani, kim o'z bilimini sinab ko'rmoqchi. *(Bolalar, doskaga chaqirilib, stol ustidagi tarqatma materiallardan tanlashliri so'raladi va javoblariga yarasha og'zaki munosabat bildirilib, baholanadilar)*

– Keling endi yangi mavzuni o'tishdan oldin sergakdanib olamiz.

III. Dam olish daqiqasi

a) O'uvchilar o'rnidan turib fizkult-daqiqa bajaradilar:

Derazamni ochaman,

Toza havo kirsin deb,

Fizkultura qilaman,

Tanim kuchga to'lsin deb.

b) Bolalarning fikrini charhlash maqsadida tez aytish va topishmoq topishga undaladi:

- Tez aytish

Qobil qahraton qishda qishloqda qishladi,

Qahraton qishda Qobil qishloqda qishladi.

- Topishmoq

1. Bir tup daraxtda o'n ikki butoq,

Har bir butoqda o'ttizlab yaproq,

Yaproqlarning yarmi qora, yarmi oq,

Qani, kichik do'st, buni o'ylab top!

(yil, oy, kun va tun)

2. O'zi yerda, boshi ko'kda.

(tutun)

3. Uyum-uyum oq paxta,
Keng osmonda ochilar.
Shamol — mashina tersa,
Undan tomchi sochilar.

(bulut)

(Bu tez aytish va topishmloqlar guruhlariga bo‘linib musobaqa shaklida o‘tkaziladi va har bir to‘g‘ri javob yoki to‘g‘ri bajarilgan vazifa uchun rag‘batlantiriladilar.)

IV. Asosiy qism

1. Yangi mavzuni tushuntirish.

- "Chumoli va chigirtka" o‘zbek xalq ertagi bo‘lib, bugungi mavzumiz ana shu haqidadir. Asosiy qahramonlarimiz chumoli va chigirtkadir. Mana bu yerda ularning rasmlari chizilgan. Chumoli, mehnatsevar, ishchan, ko‘ngilchan, toza, pok halol, do‘stini qadriga yetadigan obrazni aks ettiryapti. Chigirtka esa, havoyi, dangasa, ishyoqmas, kelajakni, ertangi kunni o‘ylamaydigan, "qish g‘amini yozda o‘yla" maqolaga rioya qilmaydigan obraz sifatida tasvirlangan. Voqea bunday bo‘lgan edi:

- Bir o‘tloqda chumoli va chigirtka yashar ekan. Ular qalin do‘st ekan. Chumoli qish g‘amini yeb, iniga don-dun tashirdi. Buni ko‘rgan chigirtka esa "Kichkina boshingga nega buncha tashvish, o‘ynab-kulib yursang-chi?" – debdi. O‘zi esa chirillab, qo‘shiq aytib yuraveribdi. Bir kuni chumoli katta boshoqni iniga olib ketmoqchi bo‘libdi, lekin og‘ir narsani ko‘tarolmay, yonidan chiqib qolgan chigirtkaga murojaat qilib, yordam so‘rabdi. Chigirtka "chirr-chirr" etib uchib ketibdi. Lekin chumoli o‘zi amallab olib kiribdi.

– Kunlar o‘tib sovuq tushibdi. Chigirtka sovuqdan chiday olmay chumolini eslabdi. Va oldiga boribdi. Uni uyiga kirgizishini so‘rabdi. Chumolining rahmi kelib, "Mayli, kiraqol, lekin kelgusi yilda qish harakatini qil" - debdi va ikki do‘st bir uyda qishlashibdi.

– Bolalar, bu yerda do'stlik, oqibatlilik fazilatlaridan namuna keltirilgan-a? Ikki do'stning harakatini biz qanday baholashimiz kerak? Chigirtka yoz bo'yi o'ynab-kuldi, do'stiga vaqti kelganda yordam bermadi. Chumoli esa, qiyin ahvolda qolgan do'stiga yordam qo'lini cho'zdi. Demak, yomonlikka qarshi ezgulik qilibdi,

2. Mustahkamlash

– Qani, bolalar bizning oramizda ham shunday insonlar bor deb o'ylaysizmi?

Rahmatilla: – Ha, men bilaman, masalan Ruhsora Diyoraga har doim uy vazifasini bajarishda yordam beradi. U esa anuv kuni qalamini unga berib turmadi.

– Ha, ana, demak, biz ham har doim yahshilik, ezgulik qilishimiz kerak ekan, shundaymi, bolajonlar?

Bu mavzu yuzasidan yangi so'zlar ustidan ishlaymiz. Hammamiz daftaramizni ochib yangi so'zlarni yozib olamiz.

1. **Qish g'amini eb** — Qahraton qishni o'ylab

2. **Tashvish** — tinib-tinchimas

3. **Boshoq** — bug'doy boshog'i

Endi bolajonlar, shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzamiz. Masalan,

- Kuzda insonlar qish g'amini yeb tuzlamalar yopadilar.
- Maktabdan kechga qolsam oyim har doim tashvish tortadilar.
- Qushlarning sevimli taomi — boshoq.

V. Yakuniy qism

1) Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

– Ruhsora, Hasan, Dilduzalarga bugun a'lo baholarni qo'yamiz. Shahlo, Ra'no, Habibalarga esa kelgusi darslarda a'lo bahoga loyiq tayyorlanib kelishlari uchun yahshi baholarni qo'yamiz.

2) Uyga vazifa berish.

– "Chumoli va chigirtka" ertagini ifodali o'qing, siz ham chigirtkaga o'xshab uyga borganda o'ynab yurmasmasdan kelgusi darsda qizarib qolmaslik uchun gapirib berishga tayyorlanib keling, hammaga shu qahramonlar ishtirokida rasm chizib, gapirib berish vazifa qilib beriladi.

Xayr, keyingi darsga tayyorlaning!

XULOSA.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida idrok qilishning o'ziga xos jihatlarini ochib berishga harakat qildik. Ushbu MBIning yozish maboytida turli metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining idrokini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari haqida bir qancha ishlarni ko'zdan kechirdik.

Biz o'z ish tajribalarimizga asoslanib kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida idrok qilishning o'ziga xos xususiyatlarini va formalari haqida fikr yuritishga harakat qildik va quyidagi mulohazalarimizning ishlab chiqarishga muvoffaq bo'ladi.

1. Idrok jiddiy ravishda qidirishga narsa va hodisalarning belgilarini ajratib ko'rsatishga qaratilgan jarayondir. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idrokni uyushtirishda o'quvchilarni narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlarini aniqlashga qaratilishi lozim.

2. 1-sinf o'quvchilarining narsa va hodisalardagi belgilarni turlarga ajratish yetarli darajada taraqqiy etganligi sababli ular narsalarning ayrim belgilarini sanab ko'rsatish bilan chegaralanadi bu yoshdagi bolalar buyumlarni tahlil qilishga harakat qilmaydilar. Ular narsa va hodisalardagi 2-3 belgilarnigina tasvirlaydi.

3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idrok jarayonida o'quvchilar ko'ziga tashlanib turgan o'zining belgilargagina etibor qiladi va idrok qilayotgan obektni muntazam tahlil qilmaydi. Shu sababli masalani idrok qilish tasodifiy ham ahamiyatga ega bo'lgan belgilarga asoslangan bo'ladi.

4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idrok va kuzatuvchanlikni uyushtirishda ularning fikriy va amaliy faolligi, katta rol o'ynaydi. O'quvchilar oldiga idrok va sintez jarayonida analizini taqqoslashni yani fikriy aktivlikni talab etuvchi savollar qo'yilsa ko'z atuvchining samaradorligi oshadi. Shu munosabat bilan idrok va kuzatuvchanlikning shakllanishida ko'proq sezgi organlarining ishtirok etishi mumkinligini qayd etish kerak. K.D.Ushinskiy takidlaganidek o'quvchi ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchisi idrok va kuzatuvchanlikni uyushtirish jarayonida (mulohaza tizimi) bolaning ko'zi qulog'i nutq apparati:

muskul harakat sezgilari imkoni bo`lsa hid tam bilish sezgilarni ham ishtirok etish jarayonini chorasini ko`rish lozim.

5. Boshlang`ich talim jarayonini kuzatishlarini faollashtirish uchun o`quvchilarning kuzatgan va idrok qilingan narsalarni gapirib berishi lozimligi haqida ogohlantirishning ahamiyati katta bo`ladi o`quvchi kuzatgan va idrok qilgan narsa hodisalar haqida kichik hikoya qilib berishni oldindan bilsa u kuzatish va idrok qilish jarayonida ancha faollik kursatadi.

6. Ko`rgazmali qurollar yordami bilan bolalarda idrok qilish va kuzatishlar jarayonida o`quvchilarning kuzatuvchanlik qobiliyati o`sadi. Kuzatuvchanlik narsa va hodisalardagi ko`zga yaqqol tashlanmaydigan ammo muhim xususiyatlarini payqab olish xususiyatidir. Chinakkam kuzatuvchanlik o`quvchilarning fan asoslarini har tomonlama chuqur va puhta o`zlashtirishga imkon beradi. O`quvchilarda sinchkovlik ziyraklik o`tkir zehnlilik kabi hislatlarini o`stiradi.

Shunday ekan idrok va kuzatuvchanlikni o`stirish boshlang`ich sinf o`qituvchisining oldida turgan nihoyatda muhim vazifadir. Bolalarni narsa va xodisalarni diqqat bilan kuzatishga taqqoslash va shakllantirish ular o`rtasidagi bog`lanishlarini bilib olishga bilinar-bilinmas o`zgarishlarni ko`ra olishga narsa va hodsalarining muhim tomonlarini ajrata olishga o`rgatish kerak. Bunga darsda va darsdan tashqari mashg`ulotlarda o`quvchilarning idrokini hamda kuzatishlarini to`g`ri tashkil etish orqali ular oldiga turli vazifalar qo`yish bilan erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T – 2008
2. I. A. Karimov “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz” Toshkent – 2006 yil.
3. I. A. Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida”. Toshkent. “O'zbekiston” – 1997y.
4. I. A. Karimov “Barkamol avlod orzusi”. Toshkent – 1999y.
5. A. V. Petrovskiy “Umumiy psixologiya”. Toshkent. “O'qituvchi” – 1992y.
6. X. Ibragimov, U. Yo'ldoshev, X. Bobomirzaev “Pedagogik psixologiya”. Toshkent – 2007 y.
7. D. Zunnunova “Bolangizni bilasizmi?”. Toshkent – 2009 y.
8. F. N. Ganobolin “Psixologiya”. Toshkent – 1976y.
9. P. I. Ivanov “Umumiy psixologiya”. Toshkent – 1967y.
10. Q. Daminov “Psixologik atamalar izohi”. Samarqand – 1994y.
11. G'oziev “Psixologiya”. 1994y.
12. F. I. Xaydarov, N. I. Xalilova “Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi”. Toshkent – 2006y.
13. Z. T. Nishonova “Bolalar psixologiyasini o'qitish metodikasi”. Toshkent – 2005y.
14. Z. T. Nishonova “Eksperimental psixologiya”. Toshkent – 2006y.
15. T. Berdiev, A. Ibragimov “Rahbar psixologiyasi”. Toshkent – 2005y.
16. Z. T. Nishonova “Oliy maktab psixologiyasi”. Toshkent – 2003y.
17. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish – T., O'qituvchi 1984 – 224 bet
18. Xasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi – T. O'qituvchi 1996 y. – 86 bet
19. Rasulova M., Abdullayeva Q., Safarova L. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi – T.: O'zPFITI, 1999 yil 16 bet.